

**BRONXIAL ASTMA KASALLIGINI DAVOLASH VA UNING
OLDINI OLIISH CHORALARI**

Muallif; Uraimova Robiya O'tkirkbek qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali Tibbiyot fakulteti

Pediatrica ishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya; *Mazkur maqolada bronxial astma kasalligining turlari, sabablari, belgilari va uning oldini olish choralari haqida so'z yuritiladi. Bronxial astma – asosan nafas yo'llarining surunkali yalig'lanishi bilan kechuvchi kasalligi bo'lib bronxlar giperreaktivligi va ular obstruksiyasining to'liq tiklanishi hamda nafas siqishi va diskomforti shaklidagi xurujsimon yo'tal qiyin ajraluvchi balgam, hushtaksimon nafas hamda hansirash kabi kilinik belgilar bilan nomoyon bo'ladi. Bronxial astma negizida yalliglanish jarayoni yo'tadi va allergik komponentlar asosida shakllanadi. Ushbu maqola sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, talaba va keng jamoatchilik uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.*

Аннотация; *В данной статье рассматриваются виды, причины, симптомы и профилактика бронхиальной астмы. Бронхиальная астма – это заболевание, характеризующееся хроническим воспалением дыхательных путей, характеризующееся гиперреактивностью бронхов и полным восстановлением их проходимости, а также такими клиническими признаками, как приступообразный кашель с трудноотделяемой мокротой, хрипы и одышка. В основе бронхиальной астмы лежит воспалительный процесс, формирующийся на основе аллергических компонентов.*

Данная статья может быть полезна медицинским работникам, студентам и широкой общественности.

Abstract; *This article discusses the types, causes, symptoms and prevention of bronchial asthma. Bronchial asthma is a disease characterized by chronic inflammation of the respiratory tract, characterized by bronchial hyperreactivity and complete restoration of their obstruction, as well as clinical signs such as*



paroxysmal cough with difficult sputum, wheezing and shortness of breath. Bronchial asthma is based on an inflammatory process and is formed on the basis of allergic components. This article serves as a useful resource for healthcare professionals, students and the general public.

Kalit sozlari; *nafas siqishi, diskomforti, xurujsimon yo'tal, qiyin ajraluvchi balg'am, hushtaksim on nafas, astma, allergik yalig'lanish, hansirash.*

Ключевые слова: *одышка, дискомфорт, приступообразный кашель, затрудненное отхождение мокроты, хрипы, астма, аллергическое воспаление, свистящее дыхание.*

Keywords: *shortness of breath, discomfort, paroxysmal cough, difficult sputum discharge, wheezing, asthma, allergic inflammation, wheezing.*

Kirish.

Mamlakatimizda bronxial astma kasalligi yosh va o'rta yoshdagi insonlar orasida ko'p uchramoqda. Dunyoda bu kasallik bilan yashayotgan millionlab odamlar bor. Bronxial astma kasalligi bilan kasallang bemorlarga doimiy dori ichish, majburiy shifokor korigidan o'tish, tog'ri davolanish va oldini olish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi nafas siqishi, bronxial astma, qiyin ajraluvchi balg'am, kasalliklari bugungi kunda faqat bitta davlatda emas, balki butun dunyoda keng tarqalgan. Bu kasallik asosan nafas yo'llari va o'pkaga zarar yetkazadi. Bronxial astmani oldini olish – bu nafaqat shifokorlarning ishi, balki har bir inson sog'lom yashashi, harakat qilishi va o'z sog'lig'iga e'tibor berishi kerak degan muhim xulosani bildiradi.

Global miqiyosidagi ahamiyati;

Aqliy va jismoniy holatda turli o'zgarishlar yuzaga keladi. Ayniqsa, nafas siqishi, allergik yalig'lanish, hansirash kabi kasalliklar yoshlar orasida ham uchrab, ularni hayot sifatini pasaytirib yubormoqda. Hozirgi zamonda Bronxial astma kasalliklari ko'plab insonlar salomatligiga tahdid solayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu kasallik asosan nafas yo'llari va o'pkani zararlaydi, natijada insonning va zararli odatlarining keng tarqalganligi – bronxial astma kasalligining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda ko'pchilik bu kasallik haqida yetarli ma'lumotga



ega emasligi bois, u vaqtida aniqlanmaydi va kech davolanadi shu bois, bronxial astma erta aniqlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish odamlarning bu boradagi bilim va tushunchasini oshirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Zararli odatlardan vos kechish kabi oddiy chora – tadbirlar yordamida bu kasallikning oldini olish mumkin. Bronxial astma kasalligi nafaqat tibbiyot soxasi mutaxassislari, balki har bir inson uchun muhim mavzu bo'lib, uni o'rganish va bu boradi aholiga tushunarli ma'lumotlar berish zamonaviy hayotimizda juda katta axamyatga ega.

Bronxial astma kasalligining kelib chiqish sabablari;

Bronxial astma ekalogiyani yomonligidan kelib chiqadi agarda laringit kasalligini o'z vaqtida davolanmasa bronxial astma kasalligi kelib chiqadi. Bugungi kunda bronxial astma kasalligiga chalinayotgan bolalar soni ko'paymoqda, bu esa kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar ko'paymoqda. Bronxial astma kasalligini ko'plab kelib chiqish turlari o'pka shomollashishi yoki yalig'lanishidan, laringitdan, jismoniy zo'riqishdan, paydo bo'ladi. Bronxial astma sabablari juda ko'p bo'lib, har bir bemorda bir nechda xavf omillari yoki sabablar aniqlashi mumkun. Ular shartli ravishda uch guruxga bo'linadi olib keluvchi omillar, sabab bo'luvchi omillar, bironxial astma kasalligin rivojlanishini kuchaytiruvchi omillar. Bronxial astma kasalliginining rivojlanishida organizm immunologik holatining o'zgarishi yetakchi o'rin egallaydi. Immun tizimidagi o'zgarishlar bronxlarning o'ta sezuvchan bo'lishi va reaktivligining oshishiga olib keladi. Allergik mexanizimlar darhol va sekinlik bilan yuzaga chiquvchi reaksiyalarga bo'linadi. Shunday qilib bronxial astmaning ekzogen shaklida kuzatiladigon tez yuzaga keladigon tibdagi allergik reaksiyada yallig'lanish jarayoni IGEga bog'liq holda rivojlanadi. Endogen atopik bo'lmagan tipdagi bronxial astma semiz hujayralar, eozinofillar limfonizlar, araxidon kislota metabolizimi neyropeptidlar ajralishi, n.vagus tonusi oshishi natijasida prostaglandin, leykotrien, tronboksan, va boshqa yalig'lanish mediatorlarining ajralishi tez yuzaga keladigan tipdagi allergic reaksiya IGEga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi.



Sekin rivojlanuvchi reaksiya katta yoshli bemorlarning xar ikkisida kuzatilib, qonda aylanib yuradigon IGG, IGA, va IGMga taluqli, anti tanachalari bilan va kompiliment ishtirokida

Og'ir holatlar va asorat belgisi;

Agar bronxial astma kasalligi vaqtida davolanmasa, u og'irlashadi va bemorning sog'lig'ida jiddiy muammolar paydo bo'ladi. Bunday holatlarda odam hayoti ancha qiyinlashadi. Birinchidan, bemorning nafas olishi qiyinlashadi. Tanada holsizlik paydo bo'ladi opkada kislarod qabul qilish qiyinlashadi. Ba'zida bemor nafas ololmay ham qolishi mumkun. Ikkinchidan hushidan ketib qoladi va unga kislarod berishi kerak bo'ladi Kamharakat turmush tarzini olib, bormang, ko'proq vaqtingizni uydan tashqarida, toza havoda o'tkazing allergiya keltirib chiqaradigan oziq ovqatlarni va yerli narsalarni istemol qilmang davolovchi mashilar darslarga qatnashing aftatrof muhitni zararlaydigan qo'zg'atuvchilardan saqlaning masalan tamaki tutuni.

Astmani tashxislash va davolash uchun pulmonolog quyidagi tahlillar va tekshiruvlarni buyuradi:

- dastlabki umumiy ko`rik;
- sperometriya
- pikfloumetriya;
- allergenni aniqlash uchun tahlil;
- jismoniy faollik bilan testlar.

Bronxial astmani davolash

Bronxial astma surunkali kasallik bo'lgani va xurujlar davriyligidan qat'iy nazar, davolashning asosida allergenlar bilan aloqani cheklash, to'g'ri parhezga rioya qilish va to'g'ri ishda ishlash yotadi. Agar allergenni aniqlash imkoni bo'lsa, o'ziga xos giposensibilitiv davolash allegenga organizmning reaksiyasini kamaytirishga yordam beradi.

Nafas qisilishi xurujlarini bartaraf etish maqsadida aerosol shaklida beta-adrenomimetiklar qo'llaniladi, ular bronxlarni tezda kengaytishiga va bal'gam ko'chishiga yordam beradi. Unday prearatlar fenoterol gidrobromidi, salbutamol,



ortsiprenalin. Har bir holatda doza alohida-alohida tayinlanadi. ipratropium Shuningdek nafas qisilishi xurularini m-xolinolitik guruhidagi preparatlar yaxshi bartaraf etadi — ipratropiy bromid aerosoli va uning fenoterol bilan birlashmasi.

Bronxial astma bilan kasallangan bemorlar orasida ksantin mahsulotlari juda mashhurdir. Ular uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadigan, tabletka shaklidagi astma xurujlarini oldini olish uchun tayinlanadi. So'nggi yillarda, **mastotsitlarning** (granulositlarning bir turi) degranulyatsiyasiga to'sqinlik qiladigan dorilar astmani davolashda ijobiy natijalar bermoqda. Bular ketotifen, natriy kromoglikat va kaltsiy ionlari antagonistlari.

Bronxial astmaning o'gir shakllarini davolashda gormonal terapiya qo'llaniladi, bemorlarning chorak qismi glyukokortikosteroidlarni talab qilishadi. Ertalab 15-20mg Prednilozon va oshqozon shilliq qavatini himoya qiluvchi antasidlar qabul qilinadi. Kasalxonada gormonal preparatlar in'ektsiya shaklida qo'llanilishi mumkin.

Astmani davolashning o'ziga xos xususiyati — eng kam miqdorda va eng samarali preparatlardan foydalanishdir. Balg'amni yaxshi ajralishi uchun ekspektoranlar va mukolitik preparatlar buyuriladi. Shuningdek, astmani yuzaga kelishida ishtirok etadigan kasalliklar — surunkali, pnevmoniyalarni o'z vaqtida davolash ham muhim o'rin tutadi.

Kasallikning rivojlanishi sabablari

Bolalarda ham, kattalarda ham bronxit ko'pincha birlamchi infektsiyali kasallikidir. Kasallik ko'pincha infektsion agent ta'sirida rivojlanadi. Birlamchi bronxitning eng ko'p uchraydigan qo'zg'atuvchilari orasida quyidagi patogenlar mavjud:

- Viruslar: paragripp, gripp, adenovirus, rinovirus, enterovirus, qizamiq;
- Bakteriyalar (stafilokokklar, streptokokklar, gemofil tayoqcha, mikoplazmaning respirator shakllari, ko'k yo'tal qo'zg'atuvchisi agenti, xlamidofillar);
- Zamburug'lar (kandida, aspergilla).



85% hollarda viruslar infektsiya jarayonining sababchisi bo'lib qoladi. Biroq, ko'p hollarda immunitetning pasayishi, virusli infektsiyalarning mavjudligi sabab patogen floraning (organizmda mavjud stafilokokklar, streptokokklar) faollashishiga olib keladi va natijada aralash florali yallig'lanish jarayoni rivojlanishi kuzatiladi. Patogen floraning asosiy va faol qismlarini aniqlash kasallikni samarali davolash uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Zamburug' etiologiyali bronxit nisbatan kamroq tarqalgan: normal immunitet bo'lganda bronxlarda zamburug'li floraning rivojlanishi deyarli imkonsiz. Bronxial shilliq qavatning zamburug'lar bilan shikastlanishi immun tizimining sezilarili buzilishlarida kuzatiladi: tug'ma yoki orttirilgan immunotankislik, radiatsiya yoki kimyoterapiya, saratonga uchragan bemorlarning sitostatik preparatlar qabul qilishi.

Kasallikning o'tkir va surunkali shakllarini rivojlantiruvchi boshqa omillar:

- Yuqori nafas yo'llarida surunkali infektsiya o'choqlari;
- Uzoq vaqt ifloslangan havodan nafas olish (chang, sochiluvchi materiallar, tutun, bug'lar, gazlar), shu jumladan tamaki mahsulotlarini chekish;
- Bronx-o'pka tizimi organlari patologiyasi.

Bronxitni tasniflash

Kasallikning tasnifida ikkita asosiy shakl ajratiladi: o'tkir va surunkali. Bu ikki shakl ko'rsatkichlar, belgilar, simptomlar, kasallikning davomiyligi va davolash usullari bilan farqlanadi.

O'tkir noobstruktiv shakl

O'tkir noobstruktiv(obstruktiv emas) yoki oddiy shakldagi bronxit va katta va o'rta kalibrdagi bronxial naychalarda kataral yallig'lanish jarayonining rivojlanishi va yallig'lanish tarkibidagi bronxial to'siqning yo'qligi bilan ajralib turadi. Ushbu shaklning eng keng tarqalgan sababi virusli infektsiya va noinfektsion moddalardir.

Kasallik muvofiq davolash bilan rivojlanishda davom etar ekan, balg'am bronxlarni yo'talish jarayonida tark etadi, nafas olish etishmovchiligi rivojlanmaydi.



Bronxitning o'tkir obstruktiv shakli

Havo yo'llarining torligi va balg'amning oz miqdori bilan bronxospazmga moyilligini hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ushbu shakl ayniqsa xavflidir.

Yallig'lanish jarayoni, asosan, yiringli yoki kataral-yiringli tabiatan bo'ladi, o'rta va kichik kalibrli bronxlarni o'z ichiga oladi, bronxlar ekssudat bilan tiqilib yopilib qoladi. Mushak devorlari refleksiv tarzda qisqaradi va bu spazmga olib keladi. Tanada kislorod ochligiga olib keladigan nafas olish yetishmovchiligi paydo bo'ladi.

Kattalardagi simptomlar

Nafas olish tizimining rivojlanganligi, immun tizimi mustahkamroqligi va salbiy omillar uzoqroq ta'sir qilishi natijasida kasallikning o'tkir va surunkali shakllari belgilari bolalardagi bronxitdan ancha farqliroq bo'ladi.

Kattalardagi o'tkir bronxit

Ko'pincha (85% hollarda) o'tkir respirato'r virusli (O'RVI) oqibatida yuzaga keladi. Kasallik birdan yuzaga kelishi bilan farqlanadi, avval ko'krak qafasidagi bezovtalik yuzaga keladi, keyin kechasi yotgan holatda samarasiz yo'tal kuzatiladi, yo'talganda ko'krak va diafragma mushaklarida og'riq paydo bo'ladi.

O'RVI fonida yuzaga kelgan bronxitda umumiy intoksikatsiya (zaharlanish) alomatlari (mushaklardagi og'riq, holsizlik, bosh og'rig'i, bo'g'imlarning og'rig'i), istma, kataral alomatlarini ustma-ust yuzaga kelishi (to'mov, tomoq og'rig'i, ko'zlarning yoshlanishi va hokazo) kuzatiladi.

Bronxitda yo'tal bronxlar yallig'lanishi natijasida hosil bo'lgan ekssudatni chiqarib tashlashga yordam beradigan himoya mexanizmi hisoblanadi. To'g'ri davolash qo'llanilganda, 3-5 kun o'tib, samarali yo'tal yuzaga keladi, balg'am ajralishi natijasida biroz yengillik hissi paydo bo'ladi. Nafas olganda ko'krak qafasida stetoskop bilan yoki instrumental tekshiruvsiz ho'l xirillash eshitiladi.

O'tkir respirator virusli infeksiyalarda samarali yo'tal odatda O'RVIDan tiklanish boshlanishi bilan birga kuzatiladi: intoksikatsiya alomatlarini kamayadi, normal tana harorati kuzatiladi (yoki subfebril doirasida bo'ladi). Agar kasallik



boshlangach, 3-5 kun o'tib yaxshilanish kuzatilmayotgan bo'lsa, ehtimol qo'shimcha bakterial infektsiya va / yoki asoratlarni mavjud.

Yo'talning umumiy davomiyligi — 2 haftaga qadar, bu vaqt davomida bronxlarni balg'amdan tozalanadi. Yo'tal to'xtaganidan keyin taxminan 7-10 kun davomida bronx devorlarining epitelial hujayralari regeneratsiyasi kuzatiladi. Kattalarda kasallikning o'tkir shakli o'rtacha davomiyligi 2-3 haftadir. Asoratlarsiz hollarda va illatlarsiz, sog'lom odamlarda pastki nafas yo'llarining to'liq tiklanishi bilan yakunlanadi.

O'tkir obstruktiv shakl

Kattalarda o'tkir obstruktiv bronxit bolalarda nisbatan kamroq uchraydi va nafas yo'llarining tuzilishi tufayli nisbatan kamroq xavf tug'diradi, lekin kasallik og'irligi nafas yetishmovchiligining namoyon bo'lishiga bog'liq.

O'tkir obstruktiv shakldagi nafas yetishmovchiligi bronxlar va bronxlarning ekssudat bilan tiqilib qolish darajasiga bog'liq.

O'tkir obstruktiv shakl asosan bronxial astma, chekuvchilar, keksalar, o'pka va yurak kasalliklarining surunkali shakllariga ega bo'lgan shaxslar uchun xosdir. Birinchi alomatlar kislorod yetishmasligi tufayli yuzaga keladigan sezilarli hansirash (tinch holatda ham), uzoq va og'ir samarasiz yo'tal, nafas olayotganda ko'krak qafasida xirillash eshutilishidir.

O'rta va og'ir nafas yetishmovchiligi darajasida bemor suyangan, o'tirgan, yarim o'tirgan holatni egallashga intiladi. Nafas olish jarayoniga ko'krak qafasining yordamchi muskullari jalb qilinadi, nafas qisilishda burun qanotlarining sezilarli kengayishi kuzatiladi. Sezilarli gipoksiyada burun-lab uchburchagi sianozli (ko'karishi), qo'llar va oyoqlar tirnoq plastinkalari ostidagi to'qimalarining qoramtir tus olishi. Har qanday harakat hansirashga olib keladi, jumladan gapirish ham.

To'g'ri davolash choralari bilan 5-6 kun davomida yengillik yuzaga keladi, balg'am ko'chishi boshlanadi. Umuman olganda, kasallik noobstruktiv shaklga qaraganda ko'proq vaqt davolanadi, davolash jarayoni 4 haftagacha davom etadi.

Surunkali kasallik shaklining belgilari va bosqichlari



Kamida uch oy davomida bronxial yo'tal bo'lganda surunkali bosqich tashxislanadi, shuningdek anamnezda (kasallik tarixida) kasallikning rivojlanishi uchun ma'lum xavf omillari mavjudligi ham undan shubha qilinadi. Eng keng tarqalgan xavf omili — chekish, ko'pincha faol, lekin passiv chekish (tutundan nafas olish) ham bronxlar devorlarining yallig'lanishiga olib kelishi mumkin.

Surunkali shakl sezilmaydigan shaklda yoki kasallikning kuchayishi va remissiyasi navbatlanishi bilan kechishi mumkin. Kasallikning kuchayishi asosan virusli yoki bakterial infeksiyalar fonida yuzaga keladi. Kasallikning kuchayishi iqlim sharoiti o'zgarganda, masalan sovuqda yoki nam muhitda kuzatilishi mumkin.

Tegishli davolanishsiz kasallikning surunkali shakli o'sib boradi, nafas olish yetishmovchiligi kuchayadi, kasallikning kuchayish davrlari tobora qiyinlashadi.

Kasallikning dastlabki bosqichlarida remissiya davrida bemorni tungi uyqudan keyin epizodik yo'tal bilan bezovta qilishi mumkin. Kasallik rivojlanishi bilan klinik tasvir kengayadi, jismoniy mashqlar qilganda hansirash, ko'p terlash, charchoq, kechalari va dam davrida kuchli yo'tal paydo bo'lishi kuzatiladi.

Kasallikning keyingi bosqichlari ko'krak qafasi shaklining o'zgarishi, vaqti-vaqti bilan nafas olganda o'ziga xos nam xirillash alomatlari kuzatiladi. Yo'tal yiringli eksudat ajralishi bilan kechadi, teri rangi qoralashadi, lab-burun uchburchagida sianoz kuzatiladi. Oxirgi bosqichlarda surunkali bronxitni davolash qiyin, davolashsiz surunkali obstruktiv o'pka kasalligi shakliga o'tadi.

Bronxial astmani oldini olish va kasallik yakuni

Bronxial astmaning kechishi avj olish va remisiiya davrlaridan iborat, kasallik o'z vaqtida aniqlanganda tegishli davolash choralari bilan uozq muddatli va samarali remissiyaga erishish mumkin. Kasallikning yakuni bemor o'z salomatligi haqida qanday qayg'urishi va shifokor ko'rsatmalariga qanday amal qilishiga bog'liq.

Surunkali bronxitni oldini olish, chekishni tashlash va allergenlar bilan aloqani kamaytirish profilaktikada muhim ahamiyatga ega. Bu xavf ostida bo'lgan yoki oila tarixga ega odamlar uchun ayniqsa muhimdir.